



## SOHIBQIRON AMIR TEMUR VA SHOHRUH MIRZONING ILM-FAN TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI

**Turdimirzayev Jahongir Abduqayum o'g'li**

“Sharjah” international school xususiy maktabi

arab tili o'qituvchisi

+998990605175

[jturdimirzayev@gmail.com](mailto:jturdimirzayev@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13907605>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01- Oktober 2024 yil

Ma'qullandi: 05- Oktober 2024 yil

Nashr qilindi: 09- Oktober 2024 yil

### KEY WORDS

*Sohibqiron, Amir Temur, Shohruh Mirzo, Samarqand, Hirot, Ibn Haldun, Sa'duddin Taftazoniy, Toj Salmoniy, Ibn Arabshoh, Damashq, Mamluklar.*

### ABSTRACT

*Temuriylar davrida turli ilmlarining rivoji o'zining yuksak cho'qqisiga chiqdi. Amir Temur olimlarini Samarqandga chaqirib, ular uchun madrasalar qurdirgan. Undan tashqari Amir Temur vafotidan so'ng Xuroson yerlarida, ayniqsa, davlat poytaxtini Samarqanddan Hirotga ko'chirgan Shohruh o'z hukmronligi davrida olim va hunarmandlarga xuddi otasi kabi hurmat bilan munosabatda bo'lgan va turli nuqtalardan olimlarni Hirotga olib kelgan.*

*Ushbu maqolada sohibqiron Amir Temur va Shohruh mirzoning ilm-fanga e'tibori, Sohibqironning ilm ahllari bilan olib borgan bahs-munozaralari, bu bahslardagi zukkoligi tarixiy dalillar bilan ochib berilgan. Bunda o'sha davrda yashab ijod etgan arab va ajam muarrixlarining asarlari va undagi ma'lumotlar asos qilib olingan.*

Temuriylar davrida ikki shahar Samarqand va Hirot im-fan va madaniyatda yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Albatta bunda hukmdorlarning ilmni rivojlantirish uchun qilgan say-harakatlarining o'rni beqiyos. Amir Temur qaysi shaharga yurish qilsa, u yurtning olimlarini izzat-ikrom etadi va ularni poytaxt Samarqand shahriga taklif etadi. Ularga bu shaharda faoliyat yuritishlari uchun masjid va madrasalar bino qilib beradi. Sohibqironning o'zi ham juda zakovatli, bilimdon edi. Buni olimlar bilan olib borgan bahs-munozaralari yaqqol ko'rsatib beradi. Doimo Sohibqiron bir tomondan, yurish qilgan joylardan o'z poytaxtiga olimlar olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zi borgan joylarda olimlar bilan albatta ilmiy munozaralar olib borgan.

Shohruh mirzo ham o'z hukmronligi davrida olim va hunarmandlarga xuddi otasi kabi hurmat bilan munosabatda bo'lgan va turli mintaqalardan olimlarni Hirotga olib kelgan. Turli ilmiy mavzularda ko'p mutolaa qilgan Shohruh olimlarni, adib, shoir va san'atkorlarni doimo qo'llab-quvvatlagan. Ularning ko'pini Hirotga olib kelib, u yerda ko'plab ilmiy asarlar jamlangan kutubxonalar tashkil etadi. Shohruh davrida Hirotidagi kutubxonalarda qimmatli asarlar ko'p bo'lgan. Shahar o'zi nodir asarlarni jamlagan kutubxonalari ko'pligi bilan ham ajralib turgan.

### ASOSIY QISM

Movarounnahr va Xuroson shaharlari Chingizxon tomonidan o'z boshqaruviga olingunga qadar Saljuqiy va Xorazmshohlar davlatining tasarrufida bo'lgan. Bu davrda madaniyat va san'at sohasi sezilarli darajada rivoj topganini ko'rish mumkin. Bu boy muhit mo'g'ullar davrida tanazzulga yuz tutadi. Mo'g'ullardan so'ng Amir Temur hokimiyati ostiga kirgan ushbu mintaqada ko'plab sohalarda, xususan, ilm-fan, san'at va adabiyotda muhim izlanishlar olib borilishi qayta tiklandi. Amir Temurning otasi Tarag'ay olimlarga yaqin bo'lganligi va ilmiy majlislarda qatnashganligi uchun o'g'li Temurni yoshligidan ilmga qiziqtirishga harakat qilib, ilmiy munozaralarda qatnashishga undagan [15:24-25]. Shu munosabat bilan Amir Temur o'zi egallagan mamlakatlardan olimlar, san'atkorlar, rassomlar va boshqa soha ustalarini o'zi bilan birgalikda poytaxti Samarqandga olib kelib, Temuriylar davlati madaniyati va tamaddunini yuksak bosqichga olib chiqish jarayonini boshlab berdi. Amir Temur 1370-yil boshlagan bu faoliyatlari Temuriylar davlati qulagandan so'ng 1526-yilda Hindistonda tashkil topgan Boburiylar davlati bilan birgalikda 1858-yilga qadar, yani, Hindiston ingliz mustamlakachilari tomonidan egallanguncha davom etdi.

Deyarli barcha temuriy hukumdorlar, xususan, Amir Temur va Shohruh mirzo ilm-fan va madaniyatga juda katta e'tibor qaratgan. Chunki Amir Temur uzoqni ko'ra oladigan, farosatli va juda zukko shaxs edi. Uning zakovatli ekanligiga o'sha davrning tarixchilaridan, jamiyatshunoslik fanining asoschisi hisoblangan Ibn Xaldun ham guvohlik bergan. "U (Temur) zehni mustahkam va juda zakovatli, ko'p bahslashadigan, bilgan va bilmagan narsasida qat'iyatli kishidir". [1:741].

Amir Temur zabt etgan yurtlarida olimlar va bilim odamlarini bir joyga to'plab, ular bilan turli mavzularda bahs va munozaralar olib borishni yaxshi ko'rar edi. Bu so'zimizni temuriylar davri arab tarixchilaridan Abdurahmon Saxoviy ham yaqqol tasdiqlaydi. U o'zining "Az-zov al-lami" asarida shunday deydi: "U (Temur) olimlarni bir joyga to'plab, ularga o'zaro bahs-munozara qilishni buyurardi va ularga turli masalada savollar berib qiynardi" [3:50]. Biz Amir Temurni ilm-fan va olimlarga bo'lgan munosabatini o'rganishda yana shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Amir Temur biror davrda olim bilan suhbat quradigan bo'lsa, o'z davrining va sohasini yetuk kishilari bilan bahs-munozara yuritgan. Bu fikrlarimizga misol tariqasida Amir Temur Halab shahrini egallaganda, shaharga kirib ulamolarni bir joyga to'playdi va o'zining tarjimoni bo'lgan Abduljabbor ibn No'monga shunday deydi: ularga ayt "men sizlardan bir masala to'g'risida so'rayman. Bu masalani Samarqand, Buxoro, Hirot va barcha fath etgan yurtlarimdagi ulamolardan so'radim. Lekin ulardan tayinli javob olmadim. Sizlar ular kabi bo'lmang. Menga eng bilimdon va fozil kishingiz javob bersin" [4:299]. Bundan ko'rinib turibdiki, Amir Temur o'zi bilan suhbat olib boradigan kishilarini ham eng bilimdonlarini tanlab olgan. Amir Temurning ilm odamlarga bo'lgan munosabatini Ibn Arabshoh quyidagicha ta'riflaydi: "Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayyid-u shariflarni o'ziga yaqin tutardi. Olimlar va fozillarga to'la-to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko'radi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib, o'z ikrom-u hurmatini unga izhor etardi. Ularga nisbatan o'z muruvvat bisotini yoyardiki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan mazmunli bahs ham yuritar ediki, bu bahsida insof-u hismat bo'lardi. Uning lutfi qahri ichiga qorilgan bo'lib, qo'rsligi ezguligi orasiga qo'shilgan edi" [7:513].

Temuriylar davrida islom ilmlarining rivoji o'zining yuksak cho'qqisiga chiqdi. Amir Temur juda etiborli din olimlarini amalga oshirgan safarlaridan so'ng Samarqandga chaqirib,

ular uchun madrasalar qurdirdi. Bularning eng ko'zga ko'ringanlaridan biri, Temur Xorazmni egallagan vaqtda tafsir, hadis, fiqh, falsafa, kalom, mantiq, arab-tili va boshqa ilmlarda mashhur bo'gan Saduddin Taftazoniy hisablanadi [11:267]. Saduddin Taftazoniy (1322-1390) Amir Temur 1379-yil Xorazmni qo'lga olgan vaqtda o'sha yerda bo'lib, Muiziddin Kartning o'g'li Saraxs hokimi Malik Muhammadning iltimosi bilan Temur uni dastlab Saraxsga borishiga ruhsat beradi. Samarqandga qaytgandan so'ng, Xorazm fathi bilan uni tabriklash uchun kelgan olimlar va shayxlarning "Temur hazratlari Xorazmni fath etdi, ammo bu fathning asl mevasini Malik Muhammad Saraxsiy oldi" deganlarini Temur eshitdi va ulardan bu nimani anglatishini so'radi. Bunga javoban Taftazonoyning asarlari Sharqda va G'arbda birday qabul qilinganligini javobini oldi. Temur shu zahoti Taftazoniyi Samarqandga chaqirdi. Ammo Taftazoniy Hijozga ketayotganligini bahona qilib, bu taklifni rad etdi. Sohibqiron Taftazoniyi maqtab, uning kabi buyuk olim mutlaqo Samarqandga kelishi kerakligini bildirgan ikkinchi chaqirig'ida Taftazoniy oilasini olib yo'lini Samarqandga burdi va u erda Temur tarafidan katta hurmat bilan kutib olindi [13:104-105]. Amir Temur ilmiy ishlarini vafot etgunigacha Samarqandda davom ettirgan Taftazoniyga hurmat va e'tiborda kamchilik ko'rsatmadi va uni Samarqandda yig'ilgan olimlarni boshchisi qilib qo'ydi. Uning buyuk olimga ko'rsatgan hurmatini majlislarda o'ziga eng yaqin joyga o'tkazishi va majlisning nihoyasida uni yashaydigan joyiga kuzatib qo'yishidan bilish mumkin [13:105].

Amir Temur davrida faoliyat olib borgan mashhur olimlardan yana biri Sayyid Sharif Jurjoniyydir. Sayyid Sharif Jurjoniyy 740/1340-yil tavallud topgan. Amir Temurning Sayyid Sharif Jurjoniyyga nisbatan hurmati juda baland bo'lgan. Bu so'zga misol tariqasida quyidagi voqeani keltiramiz: Amir Temur Sheroz shahrini egallagan vaqtda Jurjoniyy Sherozning ko'zga ko'ringan olimlaridan biri edi. Temurga qarashli askarlar shu mintaqada qozongan e'tibori va hurmati uchun Jurjoniyyga hech qanday zarar bermadilar, aksincha, unga yuksak hurmat ko'rsatishdi. Uning uyiga bir o'qni osib qo'yib, o'sha uyni xavfsiz uy ekanligi va kim shu uyga kirsam omonda bo'lishini bildirdilar [14:23]. 789/1387-sanada Sherozni zabt etgan Amir Temur Ko'ragoniyy Sayyid Sharif Jurjoniyyi o'zi bilan Samarqandga olib ketdi. Amir Temur Sayyid Sharif Jurjoniyyi mudarrislarning boshlig'i mansabiga qo'ydi [10:54]. Sayyid Sharif Jurjoniyyi hayotini yaxshilab o'rgangan olimlarning takidlashlaricha, u kishi o'ta zakovatli, har bir narsani diqqat bilan oxirigacha o'rgangan zot bo'lgan. U kishi o'ta farosatli va balog'atli so'z ustasi bo'lishi bilan birga, munozara olib borishda ham mohir bo'lgan. U tafsir, hadis, fiqh, tasavvuf, kalom, arab tili, falsafa, mantiq, falakiyyot, matematika, mazhablar tarixi va boshqa ilmlarga oid asarlar bitgan. U zot yozgan kitoblari, xususan, arab-tili, faroiz va kalom ilmi bo'yicha qoldirgan asarlari asrlar osha ilm dargohlarida darslik bo'lib kelgan va hozirda ham davom etmoqda [10:56]. Olim Amir Temur vafotidan so'ng 1413-yil Sherozda vafot etadi.

Amir Temur davrida tarix ilmiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Uning tarix ilmiga bo'lgan muhabbati o'zgarib edi. U barcha ilmlardan ko'ra tarix ilmiga alohida ahamiyat bergan. Bu buyuk fothning tarix ilmiga bo'lgan sevgisini o'z davrining buyuk tarixchilari xususan, Arab tarixchilaridan Ibn Tag'riberdi ham e'tirof etgan. Shu o'rinda arab tarixchilarining umumiy xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, ularning deyarli barchasi Amir Temurga nisbatan salbiy munosabatda bo'lganlar. Ularning guvohlik berishicha Temur o'qishni va yozishni bilmas edi. Arab tilini umuman bilmas lekin fors, turk va mo'g'ul tillarini juda yaxshi bilar edi [7:398]. Amir Temur davrida tarix ilmiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Lekin arab manbalarida ham Amir Temurning ilm-fanga va olimlarga bo'lgan

muhabbati yaxshi yoritilib berilgan. Ibn Tag'riberdi Amir Temurning tarix ilmiga bo'lgan sevgisini shunday tasvirlaydi: "U (Temur) tarix va nabiyalar qissalarini eshitishni juda sevardi. Ular (payg'ambarlar) ga tunu-kun salovat aytardi. Tarix kitoblarni qayta-qayta ko'p tinglaganidan, uni bir maqola holiga keltirib olgan edi. Uni o'qib berguvchi agar xato qilguday bo'lsa uni to'g'irlab qo'yar edi. U ilm va olimlarni yaxshi ko'rar, hunarmandlarni o'ziga yaqin tutar edi. Ahli-ilm kishilar bilan ko'p bahslashardi va bu bahslarda adolatli bo'lar, shoir va masxarabozlardan nafratlanardi" [9:163]. Amir Temurni tarix ilmiga bo'lgan munosabatini Ibn Arabshoh shunday ta'riflaydi: "Temur tarix (kitob)lari, Xudoning rahmati va salomi bo'lg'ur anbiyolar qissalarini, podshohlar siyratlari va o'tgan salafar haqidagi hikoyalarni doimo, safarda ham, xadarda ham o'qitib, qunt bilan tinglar edi. Bularning hammasi fors tilida edi. Ushbu hikoyatlarning qayta-qayta takrorlanib o'qilishi, nag'malarining uning qulog'iga muttasil chalinishi natijasida Temur u (hikoyat)lar jilovini qo'liga olib, batamom o'zlashtirib, go'yo o'z mulki misoli qilib olgan edi. Bu shu darajaga borib etgandiki, agar o'qiyotgan kishi biror xatoga yo'l qo'ysa, Temur uning xatosini tuzatib, savolga tutar edi [7:398]. Amir Temurga tarix kitoblarini o'qib beruvchi kishisi mavlono Ubayd ismli shaxs bo'lgan [7:413]. Sohibijahonning tarix ilmiga bo'lgan munosabatini yanada yaxshi tushunishimiz uchun islom tarixining eng yirik namoyondalaridan biri Ibn Xaldun bilan uchrashuvidagi muloqotini yaxshilab tadqiq qilib ko'rishimiz lozimdir. Ibn Xaldun Amir Temurning tarixga bo'lgan sevgisiga qo'shimcha, shaxsiyati, uning qabul chodiri, odatlari haqida ham qiziqarli va muhim malumotlar bergan. Shu o'rinda Ibn Xalduning tarix ilmiga bo'lgan munosabatini ham keltirib o'tsak, Ibn Xaldun tarix ilmi borasida shunday degan: "Bilginki, tarix ilmi foydalari ko'p va yuksak maqsadlarga ega bo'lgan muhim bir ilmdir. Chunki diniy va dunyoviy ishlarni mustahkam poydevorlar ustiga qurishni istagan kishi faqat tarix orqali o'tgan jamiyatlar axloqini, payg'ambarlar hayoti va kurashlarini, hukmdorlarning boshqaruvi va siyosatini bilib, undan ibrat oladi" [6:13]. Endi bevosita uchrashuvga to'xtaladigan bo'lsak, bu suhbatda Amir Temurning tarix va ilm odamlariga qanchalik hurmatda bo'lishi ochiq ravshan ko'rinmoqda. Lekin biz bu ikki sarkarda va olimning suhbatini detallari bilan yoritadigan bo'lsak, tadqiqotimiz uzayib ketishi mumkin, shuning uchun biz bu suhbatning xulosasini bersak maqsadga muvofiq bo'ladi. Amir Temur Damashqni egallagandan so'ng o'zining oldiga bir guruh olimlarni to'playdi, xususan Temur Ibn Xaldunni olib kelishni buyuradi. Ibn Xaldun Temur o'tirgan chodirga kiradi va unga salom berib qo'lini o'padi. Amir Temur Ibn Xaldunni juda yaxshi kutib oladi. Shundan so'ng Temur Ibn Xaldunga o'zining o'lkasi va tarixga oid bir qancha savollar beradi. Bu savollarga Ibn Xaldun ham juda chiroyli javob beradi. Lekin Ibn Xaldun bergan javoblarning ba'zilariga Amir Temur qoniqish hosil qilmay, shu mavzularda o'zining qarashlarini ham unga bildiradi. Temurning bu qarashlaridan Ibn Xaldun ham lol qoladi. Shundan so'ng Temur Ibn Xaldunning barcha istaklarini ro'yobga chiqaradi va xatto uning Misrga ketishiga ham ijozat beradi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, butun umr jangu-jadal va safarlarda o'tgan Amir Temurning hayoti ilm olish bilan o'tgan Ibn Xaldundan tarix ilmida hech qolar yeri yo'q edi. Arab tarixchilarining guvohligidan ko'rinib turibdiki, Sohibqiron tarix ilmining rivoji uchun juda katta say-harakatlarni amalga oshiradi. Buning natijasida zamonasining eng buyuk tarixchi olimlari ham Amir Temur va temuriylar davrida yashab ijod qilganlar. Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abu, Muiniddin Natanziy, Ibn Arabshoh, Toj Salmoniy, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqa mashhur tarixchilar shular jumlasidandir.



Amir Temur, bir tomondan, yurish qilgan joylardan o'z poytaxtiga olimlar olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zi borgan joylarda olimlar bilan ilmiy munozaralar olib bordi. Buni 1401 yilda Damashq qamalida Ibn Xaldun bilan tarixga oid suhbatida misolida keltirish mumkin. Shuningdek, Amir Temur yurishlariga oid "Zafarnoma" nomli alohida-alohida asarlar yozgan Sharofuddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiyni voqealarni yozib borish uchun yonida olib yurgan.

Temuriylarning ilmiy faoliyatlari ular hukmron bo'lgan butun shaharlarda o'zini nomoyon qilar ekan, bunda Hirotda qilingan ilmiy ishlarning ham katta ahamiyati bor. Temuriylar Hirotni qo'lga kiritgach, bu shaharda ko'plab hukmronliklar qoldirgan madaniy merosga ustiga kelishdi va bu boy merosni o'z ishlari bilan yanada yuqori bosqichga olib chiqishgan.

Bu davrda shahardagi hukmronlik davri siyosiy jihat bilan bir qatorda ilm-fan va madaniyat qudrati jihatidan ham avjiga chiqdi, saroydagi mirzolar adabiyot va she'riyatga qiziqib, ularning aksariyati shoirlar edi.

Amir Temur vafotidan so'ng Xuroson yerlarida, ayniqsa, davlat poytaxtini Samarqanddan Hirotda ko'chirish orqali ko'plab ilmiy faoliyat olib borgan Shohruh o'z hukmronligi davrida olim va hunarmandlarga xuddi otasi kabi hurmat bilan munosabatda bo'lgan va turli nuqtalardan olimlarni Hirotda olib kelgan. Ilmiy mavzularda ko'p mutolaa qilgan Shohruh olimlarni qo'llab-quvvatlagan. Hirotda temuriylar madaniyati va sivilizatsiyasi izlarining rivojlanishining asosiy omillarini turk madaniyati bilan birga arab, fors va hind madaniyatlari ta'sirini ham ko'rish mumkin. Shohruhning vafotigacha uning saroyida bo'lgan Abdurrazzoq Samarqandiy uni asr mujaddidi deb ta'riflab, hadis, fiqh va tarixga oid kitoblarni o'qiganini ta'kidlaydi. O'sha davr arab manbalaridagi ma'lumotlarga qaraganda 1429-yil 13-oktiyabr kuni Shohruh tomonidan bir elchilik hay'ati Qohiraga yetib bordi. Elchilar mamluk sultoni Barsbayga Shohruh va Sheroz hokimi Ibrohim sultonning maktub va qimmatli sovg'a-salomlarini yetkazdilar. Shohruh Barsbayga yuborgan maktubida undan Ibn Hajar Asqaloniyning Imom Buxoriy tomonidan yozilgan "Sahih al-Buxoriy" nomli kitobiga yozgan sharhini va Taqiyuddin Maqriziyning "Kitob as-Suluk" deb nomlangan kitobini yuborishini so'ragan [8:127; 9:336; 6:13]. Mamluk sultoni Shohruhning kitoblar masalasidagi talabini qondiradi [8:127; 12:191]. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, Shohruh mirzo hadis va tarix ilmlariga alohida mehr qo'ygan. Chunki, Ibn Hajar Asqaloniyning asari hadis ilmiga bag'ishlangan. Taqiyuddin Maqriziyning asari tarix ilmiga bag'ishlangan edi.

Shohruh adib, shoir va san'atkorlarni doimo qo'llab-quvvatlagan. Ularning ko'pini Hirotda olib kelib, u yerda ko'plab ilmiy asarlar jamlangan kutubxonalar tashkil etadi. Shohruh davrida Hirotdagi kutubxonalarda qimmatli asarlar ko'p bo'lganligini Mamluk sultoni Chaqmaqning Shohruh mirzodan beshta nodir asarni ko'chirib unga yuborishni so'raganligidan bilishimiz mumkin. Sulton Chaqmoq elchi orqali Shohruhdan so'ragan kitoblari: Abu Mansur Motrudiyning "Ta'vilot ahl as-sunna", Fahriddin Roziyning "Tafsiri Kabir" va "Sharhi ravza dar mazhabi Shofe", Ho'ja Mas'ud Buxoriyning "Sharhi talhisi jome", Mavlono Alovuddin Pahlavonning "Sharhi Kashshof" asarlaridir [2:87]. Bu ma'lumotlar orqali o'sha davrda Hirotning ilm-fanda qanchalik rivojlanishi bilan birga, uning qimmatli asarlarga ega bo'lgan muhim kutubxonalari borligini ham ko'rishimiz mumkin.

Shohruh davrida, ayniqsa saroyda turkiy tilga urg'u berilgan ilmiy asarlar yozildi. Shu nuqtai nazardan, Sakkokiy va Sayyid Ahmad Mirzo kabi turkiy tilda ijod qiluvchi shoirlar

yetishganligi va turkiy adabiyotning eng yaxshi namunalaridan biri bo'lgan "Merojnoma", "Qutadug'i bilig", "Tazkirat ul-avliyo" va "Hibbat ul-haqoyiq" kabi asarlarning uyg'ur harflari bilan yozilishi saroyda ilm-fanga, turk tiliga berilgan ahamiyatni ko'rsatadi. Yana Shohruh davrida Boysung'ur mirzoning Bog'i Safiddagi saroyini kutubxonaga aylantirib, ilmiy faoliyatga hissa qo'shilgan [16:251].

#### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida Samarqand va Hirot shahri dunyo ilmi-fanining markazlaridan bo'lgan. Bunda albatta, Sohibqiron va uning farzand va nabiralarning o'rni beqiyos bo'lgan. Bu shaharlarda gumanitar, aniq, tabiiy, diniy, falsafiy turi fan sohalari yuksak rivojlangan. Bu shaharlar nafaqat ilm-fan balki, boshqa sohalarda ham peshqadam bo'lgan.

Yana xulosa qilamizki, Sohibqiron yuksak aql-zakovat sohibi va tarix ilmining eng bilimdonlaridan biri bo'lgan. Buni uning Ibn Haldun bilan olib borgan bahsi va Ibn Haldunning Sohibqironga bergan ta'rifidan bilib olishimiz mumkin. Hatto Amir Temur tarixni yozib borish uchun o'zi bilan birga muarrixlarni ham olib yurgan.

#### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai Sa'dayn va Majmuai Bahrayn. – 2-jild 1- bo'lim. Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B. 632.
2. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai Sa'dayn va Majmuai Bahrayn. 2-jild 2- bo'lim. Toshkent. 2008. 87-bet.
3. Abdurahmon Saxoviy. Az-zov' al-laami' li ahli qorn at-tasi'. – Bayrut: Dar al-jiyil, 1992.– 3-jild. – B. 344.
4. Abul Valid Ibn Shihna. Rovzul manozir fi ilmi availi va avaxiri. – Bayrut: Darul kutub ilmiyya, 1994. – B. 344.
5. Ali Ibn Dovud as-Sirofiy. Nuzhatun nufus va al-abdan fi tavarixi az-zaman. – Qohira: Matbaatu darul kutub, 1970. – 3-jild. –B. 576.
6. Ibn Xaldun. Tarixi ibn Xaldun. – Bayrut: Dar al-fikr, 2000. – 7-jild. – B.762.
7. Ibn Arabshoh. Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 513.
8. Ibn Iyoz. Badoiu az-zuhur fi vaqoi'i ad-duhur. – Qohira: 1972. – 2-jild. –B. 622.
9. Ibn Tag'riberdi. An-nujum az-zohira fi muluki Misr va al-Qohira. – Qohira: Darul kutub Misriyya, 1971. –14-jild. –B. 336.
10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Samarqandning sara ulamolari. Toshkent. 2019.
11. Ahmet Şimşirgil. Emir Timur. Istanbul. 2017.
12. Cüneyt Kanat. Memlük Timurlu münasebetleri. – Ankara. Türk tarih kurumu, 2022. – S. 233.
13. Musa Şamil Yüksel. Timurlularda Din-Devlet İlişikisi. İzmir. 2007.
14. Övezmuhammet Abdullayev. Seyyid Şerif Cürçani'de Tanri-Alem Tasavvuru. Bursa. 2005.
15. Şerefüddin Ali Yezdi. Zafernâme. – İstanbul: Selenge, 2013. – S. 512.
16. Yusuf Ziya Söylemez. Timurlular Döneminde Herat. Doktora Tezi. Malatya. 2023. S. 251.